

## **INGLIZ VA O'ZBEK FRAZEOLOGIZMLARINING SAOTSIOLINGVISTIK JIHATTAN O'RGANILISHI**

**Sh.Axmadjonova <sup>1</sup>**

**R.U.Madjidova <sup>2</sup>**

<sup>1</sup> O'zDJTU magistranti

<sup>2</sup> Ilmiy rahbar: DcS, prof.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6628574>

### **Abstract**

Bugungi kunda til semantikasini o'rganish yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, uning ayrim jihatlari hozirga qadar yetarli darajada o'rganilgan emas. Mazkur maqolada tilni va tildagi turg'un birikmalar hisoblangan frazeologik birliklar sotsiolingvistik jihattan tadqiq qilingan. Bugungi kunning zamonaviy muammosi hisoblangan ingliz va o'zbek tillarining iboralari va idiomalarini semantik jihattan tahlil qilish yo'llari va usullari o'rgatilgan.

**Key words:** frazeologizm, ibora, sotsiolingvistika, sotsiolingvistik tahlil, semantik tahlil, frazeologik birlik, turg'un birikma, psixo-fiziologik hodisa

Turg'un birikma ma'nosining ko'chishi til sistemasi mavjudligining o'ziga xos ko'rinishlaridan biridir. Ushbu birliklarning to'g'ri qo'llanilishi, funksional jihatdan adyektiv shaklda bo'lishi, ya'ni birliklarni kombinatsiyalashtirish demakdir: bu birliklar so'zlovchilar tomonidan ma'lum bir makon va zamonda shakllanadi; tilning mavjudligi nuqtai nazaridan: til bu ijtimoiy psixofiziologik guruh ko'nikmalarining tovush materiyasidan tovushlarni ma'no bilan bog'lash orqali birliklarni shakllantirish mahsulidir; semiotik nuqtai nazaridan: til bu belgilar sistemasi, ya'ni moddiy borliqdagi narsa va predmetlarni ifodalovchi maxsus belgilar yig'indisi bo'lib, o'zlaridan tashqarida mavjud bo'lgan boshqa bir narsani anglatish xususiyatiga egadir; informatsiya nazariyasi nuqtai nazaridan: til bu kod bo'lib, u orqali semantik ma'lumotlar kodlanadi.

Ko'rinib turibdiki, keltirilgan dalillar tilning to'liq ta'rifini berish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun ilmiy olamda tilning quyidagi tartibda eng qisqa ta'riflardan foydalaniladi: 1) "Til bu insoniyat muloqotining eng muhim vositasidir". 2) "Til bu insonning moddiy borliq dunyoni bilish quroli va vositasidir".

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, uning turli muhit va qatlamlari (leksika, grammatika, stilistika, norma va uning variantlariga nisbatan qo'llanilish muammosini to'laligicha xal etish borasida hanuzgacha muayyan qiyinchiliklar mavjud. Shu bilan bir qatorda tilning ijtimoiy tabiati faqat uning mavjudligini

(so'zlarning muhim "ijtimoiy rang-baranglikka ega" qismini ko'rsatish bilan) emas, balki tashqi shart sharoitlarni, ya'ni ekstralingvistik muhitni tan olishda tilning va uning barcha funksiyalarini, shu jumladan leksika, frazeologiya, grammatika va hokazolarning ijtimoiy mohiyatiga kirib borib, sheva mavjudligini barcha shart - sharoitlarini va ularning mazkur ijtimoiy muhitni bilib olishda bajargan vazifalarini tahlil qilish orqali talqin etiladi.

F.D.Sossyur o'zining mashxur "Umumiy tilshunoslik kursi" asarini turg'un birikmalar bilan tugatadi: "Lingvistikaning yagona va haqiqiy obykti o'zida va o'zi uchun ko'rilayotgan xizmat qilayotgan hodisa til demakdir". Bu tilning ijtimoiy aspekti muammolarining umumiy tasavvur qilishda bir muncha qiyin axvolga solib qo'ydi. Agar tilning o'zi eng yuqori darajada ijtimoiy hodisa bo'lib, odamlar muloqot vositasi sifatida xizmat ko'rsatayotgan bo'lsa, unda lingvistika qanday qilib "o'zida va o'zi uchun" bo'lgan tilni o'rganish bilan cheklanishi mumkin.

Shu shufayli tilning muayyan bir jamiyatda ijtimoiy zarurlik muammosini ko'pincha lingvistika sohasidan tashqaridan qidirish va ko'rish odatiy xolga aylanadi. Oddatda eng avval leksika tashqi omillar sifatida gavdalanadi. Lekin bu tushuncha quyidagi fikrlar orqali noto'g'ri ekanligi ko'riladi:

- 1) leksika strukturaviy asosda tuzilgan va u yoki bu tilning faqatgina sistemasida mavjud;
- 2) tilning grammatik strukturasi leksik jihatdan to'ldirilib borishni taqozo etadi;
- 3) tilning leksikasi va grammatik strukturasi doimiy o'zaro ta'siri tilshunoslar tomonidan yetarlicha hisobga olinmaydi.

Shunga ko'ra leksika - ijtimoiy, ammo tilning grammatik strukturasi antiijtimoiydir, degan tezi noto'g'ridir.

Shunday qilib, agar leksikani "tilning tashqi sferasi" sifatida tadqiq etayotgan olimlar leksikaning ijtimoiy aspektlarini tan olishsa, ular grammatikasini jamiyat bilan bog'lamaydilar. Albatta, alohida olingan kelishik yoki predlog, zamon yoki maylni jamiyat tizimi va h.k. bilan bog'lash mumkin emas. Umuman, ayrim grammatik kategoriyalarning jamiyat tizimi bilan chambarchas bog'liqligi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Tilda narsalar dunyosi va fikrlar dunyosi parallel xolda mavjud. Tilning grammatik tarkibi va xalq tarixi o'rtasidagi bog'liqlik ongli taraqqiyot orqali namoyon bo'ladi. Grammatik tizimdagi o'zgarishlar insoniyat ongining rivojlanishiga, insoniyat ongining (jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayoni bilan o'sib boradigan) abstraktlashtirish qobiliyatiga bog'liq. Jamiyat hayotida ro'y beradigan ulkan siyosiy ijtimoiy hodisalar, ya'ni, istilo, bosqin, va shu tillar

kontakti kabilar natijasida tilning grammatik tizimida katta o'zgarishlar bo'lmasa, o'z navbatida tilda umuman o'zgarishlar bo'lmaydi va tilga tegishli bo'lgan boshqa hamma narsa unchalik ahamiyatga bog'liq bo'lmaydi.

Til muhitining faoliyat ko'rsatishi va uning kommunikativ faoliyatining xarakteri tilga va boshqa "hamma narsa"ga birdek tegishli. Til faoliyatining konkret shart-sharoitlari, uning turli uslublari jamiyat hayoti shart-sharoitlari, ya'ni mavjud ijtimoiy sharoitlar bilan aniqlanadi. Til taraqqiyotining ichki qonuniyatlari, uning boshqa qonuniyatlari kabi pirovardida baribir ijtimoiy bo'lib qoladi. Bu sotsiologiyistikada asosiy tezis hisoblanadi va buni to'g'ri va chuqur tushunmasdan turib tilning ijtimoiy xususiyatlari muammosini yechish umuman mumkin emas.

Til va uning ijtimoiy mohiyati haqidagi masala hozirgi zamon tilshunosligining asosiy nazariy masalasidir.

Til sotsiologiyistik mohiyatining ilmiy tushunilishi ikkita savolga javob berishga bog'liq:

1. Til o'zi nima, uning tabiati qanday va tilning qanday xususiyati uning mohiyatini aniqlaydi va dunyoni bilishda qanday rol o'ynaydi?

2. Til boshqa ijtimoiy va tabiiy, ruxiy, fiziologik hodisalar bilan qanday aloqada va ulardan nima bilan farqlanadi?

Lisoniy ko'chimlar masalasi faqat tilning leksik tizimigagina tegishli bo'lib qolmay, u tilning mohiyatiga ham aloqador narsa tariqasida u mazkur ishda gnoseologik yondashuvni talab qiladi.

Gnoseologik yondashuvda til ong orqali aniqlanadi yoki ong orqali xosil qilinadi. Til ong yoki fikrlash asosining turli shakllaridagi vositasi sifatida aniqlanadi, bu esa bevosita nomlash jarayoniga aloqador hodisadir.

Ontologik yondashuv tilni ayrim obyekt sifatida ko'radi va bu obyekt xususiy tizim va taraqqiyotning maxsus ichki qonuniyatlariga egadir. Mana shu ichki qonuniyatlarni tushunish va izohlab berish lisoniy ko'chimlar tabiatini tushunishga olib keladi.

Gnoseologik yo'nalish o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

1) til "vositaviy qurol sifatida" yoki "instrumental" ("til fikr quroli, til -ong quroli, til - muloqot quroli, til - ijod quroli", "til - ko'rish quroli") mohiyat sifatida qabul qilinadi;

2) til "aks ettiruvchi" yoki "dunyoqarashga oid" mohiyat sifatida qabul qilinadi. ("tilning milliy o'zlikni anglash yoki milliy ruxning aks etishi", "tilning haqiqatni aks etishi").

Tilshunoslikda ommaviy bo'lgan munosabatlar bilan shug'ullanmay til tarix va madaniyat bilan shug'ullanmay qo'ydi va tilshunoslikning shakllanishida ommabop hisoblangan til taraqqiyotida ekstralingvistik omillarning konsepsiyasi ta'siri ostida struktural tilshunoslikdan chetga chiqib qoldi.

Tilning ijtimoiy funksiyasini muloqot vositasi va tilning bilish jarayonining vositasi sifatida ajratadigan yo'nalish faqatgina XXI asr boshlarida vujudga keldi. Bu yo'nalish A.Meye, J.Vandries, V.M.Jirmunskiy, G.G.Shor, N.S.Chemodanov, A.D.Shveyger, V.V.Nikolskiy va boshqalarning asarlarida XX asrda shakllangan va rivojlangan.

Sotsiolingvistikaning mohiyati quyidagi asosiy xususiyatlari bilan belgilanadi:

- til ijtimoiy hodisa bo'lib, faqat ijtimoiy tushuncha sifatida qaraladi;
- til muloqot vositasi sifatida psixo-fiziologik hodisa emas, chunki psixik hodisa, muloqot vositasi bo'lishi mumkin emas;
- til ijtimoiy hodisadir; bu ijtimoiy omil bo'lib, xalqqa, ya'ni shu tilda so'zlashuvchi jamoaga tegishlidir.

Tashqi tilshunoslikka Sossyur til tarixi, millat yoki xalq tarixi o'rtasidagi bog'liqlikni kiritdi va bu ikki tarix o'zaro qo'shilib ketish va bir biriga ta'sir ko'rsatishni ta'kidlab o'tdi; ya'ni xalq urf odatlari uning tilida aks etadi va uning aksi tarzida til ma'lum ma'noda o'sha xalqni va millatni shakllantiradi. Mana shu yerda tashqi tilshunoslikning obyektini til sinxronik va diaxronik nuqtai nazaridan xalqlar o'rtasidagi o'zaro ko'p qirrali aloqa vositasiga aylanadi.

F.De.Sossyur tildagi ijtimoiylik deb uning individ bilan munosabatidagi zaruriyatini hisobladi; jamiyat unga oldindan tayyor so'zlar, shakllar va hokazoni kirgizadi va ular nutqning ijtimoiy xarakteri sharoitini yaratadi.

Til mavjudligining barcha bosqichlarida uning jamiyat bilan ajralmas aloqasi ko'rinib turadi. Bunday aloqa ikki tomonlama xarakterga egadir; til jamiyatsiz mavjud emas, hamda ayni zamonda, jamiyat ham tilsiz mavjud bo'la olmaydi. Shuning uchun til jamiyat bilan o'zining paydo bo'lishidan boshlab bog'liq bo'lib kelgan, chunki jamiyat odamlar orasidagi muloqotga ehtiyoj sezadi. Shunday qilib, tilga ega bo'lgan jamoa "ijtimoiy jihatdan o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi va til belgilarining muayyan birligini tan oluvchi individlar sifatida, nutqiy jamoa esa boshqalardan til birliklari inventarlari farqlanuvchi jamoadir".

Jamiyat rivojlanishi, ijtimoiy hayot shakllarining murakkablashuvi, tafakkurning boyishi va rivojlanishi bilan tilning lug'at boyligi bo'lgan so'zlarning semantik strukturasi rivojlanadi va murakkablashadi, so'zlarning yangi ma'nolari paydo bo'ladi va o'z navbatida til ham rivojlanadi va murakkablashadi.

**Использованная литература:**

1. Abduazizov A.A. Matn – kognitiv faoliyat mahsuli // Tiltaraqqiyotining qonuniyatlari. – Samarqand: SamDCHTI, 2009. -23b.
2. Bakieva G.X. Semantika: // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2003. - №2. – S.5-9.
3. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. (Adabiy normaning tiplari). II qism. –Toshkent: Navro‘z, 1998. – 133b.
4. E. Nida. Morphology University of Michigan. Press. 1976.
5. Fabb, N. (2002) Language and Literary Structure: the linguistic analysis of form in verse and narrative Cambridge: Cambridge University Press
6. U.E. Qilichev. O‘zbek tilining praktik stilistikasi T.O`qituvchi. 1985.
7. V.A. Kukhareno.A Book of Practice in Stylistics. M."Высшаяшкола"1987
8. Yuldoshev B.O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. -Samarqand: SamDU, 2007. -108b.
9. Смит Л.П. Фразеология английского языка / Перевод с англ. – М.: Учпедгиз, 1999. – 208с.
10. Англо-русский словарь / Сост.: В. К. Мюллер. –М.: СЕ, 1978. – 912с.



**WOC**  
**WORLD**  
**ONLINE**  
**CONFERENCES**

